



THE HISTORY OF TURAN IN THE 6TH–4TH CENTURIES BCE: ANALYSIS OF SCIENTIFIC CENTERS AND RESEARCHES

Odiljon Abduvokhidovich Khamidov

Termiz State University, PhD in History, Associate Professor

odiljon-21@mail.ru

Termiz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Iran, Achaemenid period, Turan, Bactrian satrapy, archaeological research, Persian inscriptions, Amu Darya treasures, satrapy system, irrigation structures.

Received: 18.08.26

Accepted: 19.08.26

Published: 20.08.26

Abstract: The main aim of this article is a holistic historiographical analysis of the studies dedicated to the history of Turan during its dependence on the Achaemenids (6th–4th centuries BCE), conducted by the world's leading research centers and scholars. The study applies historical-comparative, systematic, and historiographical methods, as well as source criticism; research based on written and archaeological sources from the USA, the United Kingdom, France, Germany, Russia, the Czech Republic, Iran, China, Italy, Canada, the Netherlands, Tajikistan, and other countries is compared in chronological order. As a result, the main directions in studying the urban planning, craftsmanship, and architectural culture of this period, the activities of scientific centers, and the interconnections among them are identified; the historiographical schools formed since the 19th century and their mutual influence are revealed. Methodological shortcomings are also disclosed, particularly the interpretation of Turan as “Eastern Iran” in a number of Western works and the difficulties of combining written and material sources. In conclusion, the necessity of a holistic reconstruction of the region's history and of interpreting Turan as an independent historical and cultural space is substantiated, since the history of the Bactrian satrapy has not yet been presented as a separate comprehensive study.

**TURONNING MILODDAN AVVALGI 6–4-YUZYILLIKLAR TARIXI: ILMIY
MARKAZLAR VA TADQIQOTLAR TAHLILI****Odiljon Abduvoxidovich Xamidov**

Termiz davlat universiteti

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

odiljon-21@mail.ru

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Eron Ahamoniylar davri, Turon, Boxtar satrapligi, arxeologik tadqiqotlar, fors bitiklari, Amudaryo xazinas, satraplik tizimi, sug'orish inshootlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — Turonning ahamoniylarga qaramlik davri tarixi (mil. avv. 6–4-asrlar) bo'yicha jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va olimlari tomonidan amalga oshirilgan izlanishlarni tarixshunoslik nuqtayi nazaridan yaxlit tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli, tarixshunoslik tahlili hamda manbaviy tanqid metodlaridan foydalanildi; AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Chexiya, Eron, Xitoy, Italiya, Kanada, Niderlandiya, Tojikiston va boshqa davlatlarning yozma hamda arxeologik manbalar asosidagi tadqiqotlari o'zaro qiyoslandi va xronologik ketma-ketlikda o'rganildi. Natijada ushbu davr shaharsozligi, hunarmandchiligi va me'morchilik madaniyatiga oid izlanishlarning asosiy yo'nalishlari, ilmiy markazlarning faoliyati va ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlik aniqlandi; XIX asrdan buyon shakllangan tarixshunoslik maktablari va ularning o'zaro ta'siri ochib berildi. Shuningdek, ko'pgina g'arb tadqiqotlarida Turonning "Sharqiy Eron" sifatida talqin etilishi hamda yozma va moddiy manbalarni uyg'unlashtirishdagi metodologik nuqsonlar aniqlandi. Xulosa sifatida Boxtar satrapligi tarixining hozirgacha alohida kompleks tadqiqot sifatida to'liq yoritilmaganligi, yozma va moddiy manbalarni uyg'unlashtirgan holda mintaqa tarixini yaxlit tiklash hamda Turonni mustaqil tarixiy-madaniy makon sifatida talqin etish zarurati asoslab berildi.

**ТУРОН В VI–IV ВЕКАХ ДО НАШЕЙ ЭРЫ: НАУЧНЫЕ ЦЕНТРЫ И АНАЛИЗ
ИССЛЕДОВАНИЙ**

Одилжон Абдувохидович Хамидов

Термезский государственный университет

доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

odiljon-21@mail.ru

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Иран, период Ахеменидов, Турон, Бактрийская сатрапия, археологические исследования, персидские надписи, сокровища Амударьи, сатрапская система, ирригационные сооружения.

Аннотация: Основная цель настоящей статьи — целостный историографический анализ исследований, посвящённых истории Турона в период зависимости от Ахеменидов (VI–IV века до н. э.), проведённых ведущими научно-исследовательскими центрами и учёными мира. В работе использованы историко-сравнительный, системный, историографический методы, а также метод источниковедческой критики; сопоставлены и рассмотрены в хронологической последовательности исследования США, Великобритании, Франции, Германии, России, Чехии, Ирана, Китая, Италии, Канады, Нидерландов, Таджикистана и других стран, основанные на письменных и археологических источниках. В результате определены основные направления изучения градостроительства, ремесленничества и архитектурной культуры данного периода, деятельность научных центров и взаимосвязи между ними; раскрыты сформировавшиеся с XIX века историографические школы и их взаимное влияние. Также выявлены методологические недостатки, в частности трактовка Турона как «Восточного Ирана» в ряде западных исследований и трудности сочетания письменных и материальных источников. В заключение обоснована необходимость целостной реконструкции истории региона на основе сочетания письменных и материальных источников, а также трактовки Турона как самостоятельного историко-культурного пространства, поскольку история Бактрийской сатрапии до сих пор не освещена как отдельное комплексное исследование.

Kirish. Turonning ahamoniylarga qaramlik davri tarixi 200 yil — miloddan avvalgi 6–4-yuzyilliklarni oʻz ichiga olib, oʻziga xos xususiyatlarga ega. Turonning Boxtar, Fargʻona, Sugʻd hududlarida vujudga kelgan milliy davlatchilik tizimi hamda shimoliy hududlarda koʻchmanchi sak va massaget qabilalar ittifoqi ahamoniylar bosqini natijasida qaramlik davrini oʻz boshidan kechiradi. Turonning ahamoniylarga qaramlik davrida ushbu hududda Ahamoniylar Fors saltanati tarkibida bir necha satraplik va viloyatlar vujudga kelgan.

Bugungi kunda ushbu davr shaharsozligi, hunarmandchiligi va meʼmorchilik madaniyati jahonning yetakchi ilmiy markazlarida keng oʻrganilmoqda. Biroq muammo shundaki, Boxtar satrapligining miloddan avvalgi 6–4-yuzyilliklar tarixi hozirgacha alohida kompleks tadqiqot sifatida toʻliq yoritilmagan; ushbu davrning moddiy madaniyati, shaharsozligi, yodgorliklarning rekonstruksiya va arxeologik xaritasi toʻliq ishlab chiqilmagan. Bu masala hamon yetarlicha oʻrganilmagan yoʻnalish boʻlib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — Turonning ahamoniylarga qaramlik davri tarixiga bagʻishlangan ilmiy markazlar va tadqiqotlarni tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: mavzu boʻyicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tarixshunoslik nuqtayi nazaridan umumlashtirish; ilmiy markazlarning asosiy yoʻnalishlarini aniqlash; tadqiqotlardagi metodologik yondashuvlar va nuqsonlarni baholash hamda yechimini kutayotgan muammolarni koʻrsatib berish.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Boxtarning miloddan avvalgi 6–4-yuzyilliklar tarixi boʻyicha xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Chexiya, Eron, Xitoy, Italiya, Kanada, Niderlandiya, Avstriya, Belgiya va Tojikiston kabi davlatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari hamda oliy taʼlim muassasalarida ushbu davr shaharsozligi, hunarmandchiligi va meʼmorchilik madaniyatiga oid izlanishlar keng koʻlamda olib borilmoqda. Ahamoniylar davlati, xususan uning sharqiy satrapliklari tarixi masalasi A. T. Olmsted, M. M. Dyakonov, M. A. Dandamaev, I. V. Pyankov, B. A. Litvinskiy, V. G. Lukonin, V. Fogelsang, P. Brian, A. Kurt, D. T. Potts, Y. Vijsxofer, M. Brosius, M. Uoters, N. J. Xoʻjayeva, M. Ferrario va boshqalar tomonidan oʻrganilgan.

Ahamoniylar saltanatining sharqiy viloyatlari, xususan Boxtar satrapligi tarixi boʻyicha qator izlanishlar olib borilgan [1; 15-16], [2]. Satraplik tarixi boʻyicha yangi oromiy tilli hujjatlar fanga kiritilgan [3]. Afgʻoniston hududidagi arxeologik yodgorliklarni qamrab olgan maxsus maʼlumotnomada bevosita ushbu davrga oid 100 dan ortiq yodgorlikning tavsifi va geografik joylashuvi keltirilgan [4]. Surxondaryo viloyati arxeologik yodgorliklari boʻyicha izlanishlar natijasida ushbu davrga oid yodgorliklar xaritaga kiritilgan va ularning asosan sugʻorilib obod

qilingan vohalarda joylashganligi aniqlangan [5]. Boxtar satrapligi hududidagi oazis va vohalarni alohida o'rganish natijasida esa mintaqada satraplik davri o'zlashtirish jarayoni ko'rsatib berilgan [6]. Shu bilan birga, ushbu davr kulolchiligi [7] va sharqiy satrapliklar tarixi [8], [9] masalalariga bag'ishlangan qator dissertatsiyalar xorijiy universitetlarda himoya qilingan.

Turonning ahamoniylarga qaramlik davri tarixiga oid tadqiqotlar tarixshunosligi bir necha yuzyilliklardan davom etmoqda. 1771-yilda Anketil Dyuperron tomonidan Avestoning fransuz tilida chop etilishi, 1786-yilda Oksfordda V. Jons tomonidan "ariy" so'zining ilmiy muomalaga kiritilishi qisman ushbu davr tarixshunosligiga hissa qo'shdi. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati alohida yo'nalishlarga — yozma manbalar, arxeologik yodgorliklar yoki satraplik tizimiga qaratilgan bo'lib, Turon hududini yaxlit va kompleks yorituvchi tadqiqot yetishmasligi ushbu ishning zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning manbaviy asosini mazkur mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, monografiyalar hamda maxsus to'plamlar tashkil etadi. Ishda tarixiy-qiyosiy metod qo'llanilib, turli mamlakatlarda amalga oshirilgan izlanishlar o'zaro solishtirildi. Tarixiylik va tizimlilik tamoyillari asosida ilmiy markazlar faoliyati xronologik ketma-ketlikda tahlil qilindi. Tarixshunoslik tahlili metodi orqali XIX asrdan buyon shakllanib kelgan tadqiqot maktablari va ularning o'zaro ta'siri o'rganildi. Analiz va sintez metodlari yordamida turli manbalar umumlashtirilib, xulosalar chiqarildi, manbaviy tanqid metodi esa ayrim qarashlarni tanqidiy baholash imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Qadimgi fors bitiklarining o'qilishi Turonning ahamoniylarga qaramlik davri manbalarini o'rganish yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi. 1802-yilda Grotefend tomonidan qadimgi fors bitiklarining qisman o'qilishi, 1836-yilda ingliz G. Roulinson tomonidan Behistun bitiklarini o'qish bo'yicha dastlabki ishlar amalga oshirildi. Behistun bitiklari ko'chirilib, yozuv o'rganilib, 1830-yillar oxiri — 1840-yillarda bir qator tadqiqotlar nashr etildi [10; 30-43]. Ushbu tadqiqotlar natijasida qadimgi fors, elam va bobil tillarida Turonning tarixiy-madaniy viloyatlarining nomlanishi, Birinchi Doryushga qarshi qo'zg'olon ko'targan turonliklar tarixi hamda ushbu hududlarni idora etgan amaldorlar to'g'risidagi xronologik ma'lumotlar olindi.

1905-yilda O. Dalton tomonidan Turonning ushbu davr madaniyati va san'atini aks ettiruvchi Amudaryo xazinasi to'liq tavsiflangan tadqiqot e'lon qilindi. Ushbu tadqiqot keyingi 120 yil davomida mazkur xazinaga oid barcha izlanishlarga asos bo'lib xizmat qildi. Amudaryo xazinasiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar keyinchalik E. V. Rtveladze va boshqalar tomonidan e'lon qilindi. Masalan, E. V. Rtveladze xazinani miloddan avvalgi 327-yilda makedoniyalik Aleksandr tomonidan Paropamisadga satrap etib tayinlangan Oksiartga tegishli deb hisoblaydi [11].

Rossiyada “Qadimgi Eron tarixi” birinchi marta M. M. Dyakonov tomonidan yozilgan bo‘lib, dissertatsiya ko‘rinishida 1946-yilda himoya qilingan va 1961-yilda monografiya sifatida nashr etilgan [12; 7]. Turonning ahamoniylarga qaramlik davri bo‘yicha bir qator arxeologik-etnografik tadqiqotlar ham olib borilgan. Jumladan, saklarga bag‘ishlangan B. A. Litvinskiyning izlanishlari aynan ushbu yo‘nalishda amalga oshirildi [13; 16]. Uning 1972-yilda nashr etilgan “Pomirdagi qadimgi ko‘chmanchilar” monografiyasida Pomirdagi ko‘chmanchilar arxeologik manbalari to‘liq tahlil qilindi [14].

1972-yilda B. G‘afurov tomonidan “Tojiklar” nomli tadqiqotda Turonning ahamoniylarga qaramlik davri tarixi alohida bobda yoritildi [15; 73-87]. Ushbu tadqiqot ko‘pgina tarixiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olsa-da, Turon tarixini faqat bir xalq tarixi ko‘rinishida yoritgan. 1975-yilda I. V. Pyankov tomonidan ushbu davrning muhim manbalaridan biri — Ktesiy asarlari matni, tarjimasi va izohlari nashr etildi [16]. Muallif Ktesiy matnlarining Turonga oid qismlarini to‘liq keltirib, ularga tarixiy sharhlar bergani bilan muhim hisoblanadi.

Janubiy O‘zbekiston hududidan o‘tgan qadimgi yo‘llar masalasiga turli tadqiqotlar bag‘ishlangan. XIX asrning 70-yillaridan boshlab, o‘rta asr mualliflarining ma’lumotlariga tayangan holda, Amudaryo kechuvlari hamda Balxdan Kesh va Samarqandga olib boruvchi yo‘llar ta’riflangan [17; 27-28]. Yunon-rim manbalari asosida makedoniyalik Aleksandrning Baqtriya shahridan Maroqandaga yurishlari yoritilgan [18; 32-48]. O‘tgan asrning 70–80-yillarida arxeologik-topografik ma’lumotlar hisobga olinib, yozma manbalardagi dalillar qadimgi yodgorliklarning arxeologik geografiyasi bilan qiyoslandi [19; 182-188], [20; 33-38].

G‘arbiy Yevropa va Amerika tadqiqotchilari Turonning ushbu davr tarixini asosan arxeologik manbalar hamda Aleksandr bosqini davriga oid antik yozma matnlar asosida yozgan bo‘lib, keyinchalik mahalliy matnlarga ham keng e’tibor berilgan [21; 315]. G‘arbiy Yevropada dastlabki yirik tadqiqot V. Fogelsang tomonidan nashr etilgan bo‘lib [22], u yaqin yillargacha mavzuga bag‘ishlangan yagona fundamental asarlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Mazkur tadqiqotda sharqiy viloyatlar tarixi yoritilgan bo‘lsa-da, arxeologik ma’lumotlardan foydalanish darajasi cheklangan. Shuni ta’kidlash lozimki, U. Fogelsang bevosita Turon hududlarini “Sharqiy Eron” deb atagan [23], [24]. Bu, albatta, Turon hududlarini Eronning sharqiy hududi sifatida talqin etish kabi yanglish tasavvurning mahsuli hisoblanadi va tanqidiy yondashuvni taqozo etadi.

20-asrning 80-yillaridan G‘arbiy Yevropalik ahamoniyshunos olimlar tashabbusi bilan Ahamoniylar saltanatiga oid tadqiqotlar chop etildi. Ushbu to‘plamlar H. Sanchisi-Verdenburg muharrirligida nashr etilgan [25; 122-144]. Uning 1987-yildagi birinchi jildida P. Brian, U. Fogelsang kabi olimlar o‘z tadqiqotlarini e’lon qilishgan. Masalan, P. Brian markaziy hokimiyat

va madaniy ko'pmarkazlilikka bag'ishlangan maqolasida Turon hududining tadqiqini bayon etgan [26; 1-31].

P. Brian tadqiqotlari nafaqat Turonning ushbu davri, balki butun Ahamoniylar saltanati tarixi aks etishi bilan ahamiyatlidir. Uning 1984-yildagi Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq tarixiga bag'ishlangan tadqiqotining yarmi Turonga, Boxtar satrapligiga urg'u berilgan holda bag'ishlangan [27]. P. Brian muhim xulosalar keltiradi: qaramlik davridan oldingi va keyingi moddiy madaniyatda ajratib turuvchi belgilar kam; sug'orish inshootlari qaramlik davridan oldin paydo bo'lib, satraplik davrida kengaygan. P. Brian fikricha, mahalliy satrap va noiblar arxivga ega bo'lgan. Bu fikr keyinchalik isbotlandi: J. Naveh va S. Shaked tomonidan Boxtar satrapining 48 ta oromiy hujjatidan iborat arxivi nashr etildi [28].

1994-yilda Bruno Yakobs tomonidan satraplik tizimi va iyerarxiyasiga bag'ishlangan monografiya chop etildi [29]. B. Yakobs satraplik tizimining Birinchi Doryush davridan asoslari qo'yilganligini ko'rsatib, satrapliklar iyerarxiyasi modelini ishlab chiqdi [30; 9-10]. U keyingi faoliyatida ahamoniylar saroyi [31], ma'muriy boshqaruvi [32] va Ahamoniylar saltanati tarixiga oid yirik to'plamlar tayyorlashda ishtirok etdi [33].

AQSHda tadqiqot olib borgan xitoylik olim U Sin dissertatsiyasida saltanat markazi bilan uning shimoli-sharqiy viloyatlari — Boxtar, Sug'd va Xorazm o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etib, mintaqaga saltanat ta'sirini tahlil qildi [34]. R. Meirs tahririda 2020-yilda chop etilgan qo'llanmada Baqtriya va Sug'diyona tarixining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy masalalari yoritilgan bo'lib, unda 30 ga yaqin tadqiqotchi ishtirok etgan [35]. 1998-yilda Tojikistonda "Tojik xalqi tarixi" tadqiqoti chop etilib, uning manbalarga oid qismi I. V. Pyankov tomonidan yozilgan [36; 7-44]. 2023-yilda Oksford qadimgi Yaqin Sharq tarixining V jildida sharqiy satrapliklar masalalari M. Minardi tomonidan yoritildi [37; 784-836]. Rossiyada nashr etilgan o'quv qo'llanmalarda ushbu davr asosan Ahamoniylar saltanati tizimida yoritilgan [38]. M. Ferrarioning tadqiqotlarida esa Boxtar va sharqiy viloyatlar tarixi bo'yicha yangicha yondashuvlar taklif etilmoqda [39].

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, mavjud tadqiqotlar bir-birini to'ldiradi: yozma manbalarni o'rganish arxeologik izlanishlar bilan uyg'unlashib, mintaq tarixining yaxlit manzarasini shakllantirmoqda. Biroq ko'pgina g'arb tadqiqotlarida Turonning "Sharqiy Eron" sifatida talqin etilishi hamda moddiy va yozma manbalarni birlashtirishdagi metodologik qiyinchiliklar hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Boxtarning miloddan avvalgi 6–4-yuzyilliklar tarixi XIX asrdan buyon tadqiq etib kelinayotgan bo'lsa-da, hozirgacha alohida kompleks tadqiqot sifatida to'liq yoritilmagan. Yozma va moddiy manbalar asosida ushbu davrning moddiy madaniyati, shaharsozligi, yodgorliklarning rekonstruksiya va arxeologik xaritasi to'liq ishlab chiqilmagan.

Chet elda olib borilayotgan tadqiqotlar avvalo yozma manbalar asosida hududning siyosiy tarixini yoritishga qaratilgan. Shu bilan birga, Janubiy O'zbekiston, Shimoliy Afg'oniston va Tojikistonda amalga oshirilayotgan xalqaro qazishma ishlari orqali yangi arxeologik yodgorliklar aniqlanmoqda. Bu izlanishlarda hudud moddiy madaniyati — yodgorliklar, me'morchilik, kulolchilik, tosh ishlovchilik atroficha o'rganilmoqda.

Ushbu izlanishlar natijasida Boxtar satrapligining siyosiy va ma'muriy tuzilmalari, aholining iqtisodiy hayoti hamda madaniy aloqalari haqidagi tasavvurlar boyimoqda. Kelgusi tadqiqotlarda yozma va arxeologik manbalarni uyg'unlashtirgan holda mintqa tarixini yaxlit tiklash, shuningdek, Turonni mustaqil tarixiy-madaniy makon sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Radner, K., Moeller, N., & Potts, D. T. (Eds.). (2023). The Oxford History of the Ancient Near East. Vol. V: The Age of Persia. Oxford: Oxford University Press. 1048 p.
2. Bruno, J., & Rollinger, R. (Eds.). (2021). A Companion to the Achaemenid Persian Empire (2 vols.). Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.
3. Naveh, J., & Shaked, S. (2012). The Aramaic Documents from Bactria (Fourth Century B.C.E.). London: The Khalili Family Trust.
4. Ball, W. (2019). Archaeological Gazetteer of Afghanistan (Rev. ed.). Oxford: Oxford University Press.
5. Stride, S. (2004). Géographie Archéologique de la Province du Surkhan Darya (Vols. I–V). Paris: Université Panthéon-Sorbonne (Unpublished dissertation).
6. Stančo, L., & Tušlová, P. (Eds.). (2019). Sherabad Oasis: Tracing Historical Landscape in Southern Uzbekistan. Prague: Karolinum Press. 495 p.
7. Maxwell-Jones, C. E. (2015). Typology and Chronology of Ceramics of Bactra, Afghanistan 600 BC–500 CE (PhD Thesis). Michigan: University of Michigan.
8. Wu, X. (2005). Central Asia in the Context of the Achaemenid Persian Empire (6th to 4th centuries B.C.) (PhD Dissertation). Philadelphia: University of Pennsylvania.
9. Ferrario, M. (2023). «That Land Became Mine». Bactria, Northeastern Central Asia, the Teispid-Achaemenid Persian Empire (ca. 550–327 BCE) (PhD Dissertation). Trento; Augsburg: University of Trento; Augsburg University. 982 p.
10. Adkins, L. (2003). Empires of the Plain: Henry Rawlinson and the Lost Languages of Babylon. New York: St. Martin's Press.
11. Rtveladze, E. V. (2000). O prinadlezhnosti Amudaryinskogo klada. San'at, (4).

12. Kuzmina, E. E. (2002). *Mifologiya i iskusstvo skifov i baktriytsev*. Moskva: Rossiyskiy institut kulturologii.
13. Chvyr, L. A. (2013). *Arxeologo-etnograficheskiye issledovaniya B. A. Litvinskogo*. In *Posledniy entsiklopedist*. Moskva: Institut vostokovedeniya RAN.
14. Litvinskiy, B. A. (1972). *Drevniye kochevniki «Kryshi mira»*. Moskva: Nauka.
15. G'afurov, B. G. (1972). *Tadzhiki. Drevneyshaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya*. Moskva: Nauka.
16. Pyankov, I. V. (1975). *Srednyaya Aziya v izvestiyakh antichnogo istorika Ktesiya*. Dushanbe: Donish.
17. Tomaschek, W. (1877). *Central Asiatische Studien. Sogdiana*. Wien.
18. Pyankov, I. V. (1970). Marakandy. *Vestnik drevney istorii*, (1), 32–48.
19. Rtveladze, E. V. (1977). K lokalizatsii «grecheskoy» perepravy na Okse. *Vestnik drevney istorii*, (4), 182–188.
20. Sagdullayev, A. S. (1981). Drevniye puti na yuge Uzbekistana. *Obshchestvennyye nauki v Uzbekistane*, (7), 33–38.
21. King, R. R. (2021). *The House of the Satrap and the Making of the Achaemenid Persian Empire, 522–330 BCE (PhD Dissertation)*. Chicago: University of Chicago.
22. Vogelsang, W. (1992). *The Rise and Organisation of the Achaemenid Empire: The Eastern Iranian Evidence*. Leiden; New York: Brill. 344 p.
23. Vogelsang, W. (1985). Early Historical Arachosia in South-East Afghanistan. *Iranica Antiqua*, 20, 55–99.
24. Vogelsang, W. (1998). Medes, Scythians and Persians: The Rise of Darius in a North-South Perspective. *Iranica Antiqua*, 33.
25. Sancisi-Weerdenburg, H. (1980). *Yaunā en Persia*. Groningen: Drukkerij Dijkstra Niemeyer.
26. Briant, P. (1987). Pouvoir central et polycentrisme culturel dans l'empire achéménide. In *Achaemenid History 1*. Leiden: Nederlands Instituut voor het Nabije Oosten.
27. Briant, P. (1984). *L'Asie centrale et les royaumes proche-orientaux (VIII^e–IV^e siècles av. notre ère)*. Paris: Éditions Recherche sur les Civilisations.
28. Naveh, J., & Shaked, S. (2012). *Aramaic Documents from Ancient Bactria (Fourth Century BCE) from the Khalili Collections*. London: Khalili Family Trust.
29. Jacobs, B. (1994). *Die Satrapienverwaltung im Perserreich zur Zeit Darius' III*. Wiesbaden: Reichert.

30. Garrison, M. B., & Henkelman, W. F. M. (Eds.). (2023). *The Persian World and Beyond*. Münster: Zaphon.
31. Jacobs, B. (Ed.). (2010). *Der Achämenidenhof / The Achaemenid Court* (Classica et Orientalia 2). Wiesbaden.
32. Jacobs, B. (Ed.). (2017). *Die Verwaltung im Achämenidenreich* (Classica et Orientalia 17). Wiesbaden.
33. Jacobs, B., & Rollinger, R. (Eds.). (2021). *A Companion to the Achaemenid Persian Empire* (2 vols.). Hoboken.
34. Wu, X. (2005). *Central Asia in the Context of the Achaemenid Persian Empire (6th to 4th centuries B.C.)* (PhD Dissertation). University of Pennsylvania.
35. Mairs, R. (Ed.). (2020). *The Graeco-Bactrian and Indo-Greek World*. London: Routledge. 712 p.
36. Pyankov, I. V. (1998). *Istochniki i literatura*. In *Istoriya tadzhikskogo naroda* (Vol. I). Dushanbe.
37. Minardi, M. (2023). *The Northeastern Regions of the Persian Empire*. In *The Oxford History of the Ancient Near East*. Vol. V. Oxford: Oxford University Press. P. 784–836.
38. Ladynin, I. A. (Ed.). (2024). *Istoriya drevnego Vostoka*. Moskva: Gaudeamus. 809 s.
39. Ferrario, M. (2025). *District Twelve. Northeastern Central Asia from Cyrus to Antiochos*. Leiden; Boston. 510 p.